



KONSTITUTSIYA- ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

Bobomurodova Gulzira

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Konstitutsiyaning jamiyat hayotidagi o'rni, uning inson huquqlarini himoya qilish, davlat hokimiyati va jamiyat o'rtasida muvozanatni ta'minlashdagi ahamiyati yoritilgan. Konstitutsiyaning tarixiy shakllanishi, zamonaviy demokratik jamiyatdagi roli hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlashdagi vazifalari tahlil qilinadi. Shuningdek, konstitutsiyaviy islohotlarning jamiyat barqarorligi va farovonligiga ta'siri haqida fikr yuritiladi

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, Huquq va erkinliklar, Demokratik jamiyat, Davlat hokimiyati, Fuqarolik jamiyat.

Konstitutsiya davlatning eng asosiy huquqiy hujjati bulib, u jamiyat hayotini tartibga solidi. U barcha qonunlar va me'yoriy hujjatlarning asosiy mezon sifatida xizmat qiladi. Konstitutsiyaning asosiy maqsadi fuqorolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash, davlat hokimiyati organlarining vakolatini belgilash va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdir. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 16-moddasida har bir fuqoroning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi kafolatlangan.

Konstitutsiya qadimdan shakllangan bo'lib, turli tarixiy davrlar davomida jamiyat ehtiyojlariga moslashib kelgan. Qadimgi davrlarda hokimyat cheklanishi va fuqorolarning himoyasi bilan bog'liq bo'lgan. Hozirgi kunda konstitutsiya demokratik tamoyillarni mustahkamlash, adolat va tenglikni ta'minlash vazifasini bajaradi. Konstitutsiya davlat hokimiyati va jamiyat a'zolarini o'rtasida muvozanat yaratdi va jamiyatdagi ijtimoiy nizolarni oldini oladi. Ilmiy tadqiqotlar konstitutsiyaning samarli qo'llanilishi va jamiyat hayotiga ta'sirini aniqlashga yordam beradi. Konstitutsiya ekologik huquqlar va majburiyatlarni belgilaydi. Masalan, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida ko'zda tutilgan. Fuqarolik jamiyati nodavlat tashkilotlar va fuqorolar jamiyati uchun omkoniyyat yaratadi, shu bilan demokratik qadriyatlar mustahkamlanadi. Demokratik institutlar va erkin saylovlar orqali konstitutsiya inson huquqlarini himoya qiladi va fuqoroning erkin hayotini kafolatlaydi.

Huquqiy himoya mexanizmlari konstitutsiya sudlari va boshqa organlar orqali amalga oshiriladi. Bu mexanizmlar fuqorolar huquqlarini amalda himoya qiladi. Milliy qadriyatlar va madaniy meros konstitutsiya orqali saqlanadi, bu jamiyatning identifikatsiyasini mustahkamlaydi. Global tajriba shuni ko'rsatadiki, davlat konstitutsiyasining samarali ishlash jamiyat barqarorligini oshiradi.

Zamon talablariga moslashish uchun konstitutsiyaga islohotlar kiritish mumkin, bu uni amaliy va dolzarb qiladi. Konstitutsiya erkin jamiyat yaratishda, farovon hayotini



ta'minlashda va iqtisodiy hisoblanadi. Fuqoro o'z manfaatlarini erkin amalga oshiradi, davlat va fuqoro o'rtasida muvozanat yaratiladi, bu esa barqaror va adolatli jamiyatni shakllantiradi.

Konstitutsiya jamiyatdagi barcha qatlamlar uchun barqarorlik va farovonlikni kafolatlaydi. U jamiyatni rivojlantirish va erkin hayotga erishishning asosiy poydevori hisoblanadi. Har bir fuqoro konstitutsiyaga hurmat bilan yondashishi uning tamoyillarini hayotda amalga oshirishi kerak. Shu orqali erkin va farovon jamiyat barpo etiladi. Konstitutsiya barcha qonun va me'yoriy hujjatlarning ustuvor manbai hisoblanadi. Unda davlat hokimiyati bo'linishi, fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari, shuningdek jamiyat va davlatning asosiy tamoyillari belgilangan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 16-moddasida har bir fuqaroning shaxsiy daxlsizlik, erkinlik huquqi mustahkamlangan.

Tarixiy manbalarga ko'ra, konstitutsiyaviy tamoyillar qadimiy davlatlarda ham mavjud bo'lgan. Lekin hozirgi zamon Konstitutsiyasi demokratik institutlar, hokimiyatlar bo'linishi, fuqarolik jamiyati va erkinliklarni ta'minlash kabi yangicha tamoyillarga asoslanadi. O'zbekiston Konstitutsiyasi ham ana shu demokratik tamoyillarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Konstitutsiya - jamiyat barqarorligi, davlat mustaqilligi va fuqarolarning erkin hayoti uchun mustahkam asosdir. Har bir fuqaro Konstitutsiyani hurmat qilishi, undagi tamoyillarni amalda qo'llashi va o'z huquqlarini bilishi mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Konstitutsiyaga amal qilgan jamiyatda adolat, erkinlik va farovonlik barqaror bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.
2. Jo'rayev N., Xudayberdiyev R. Davlat va huquq asoslari. - Toshkent: Adolat, 2019.
3. Raxmonov A. Konstitutsiyaviy huquq. Toshkent: Istiqlol, 2020.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Lex.uz O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bazasi.